

FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIK LARI KAFOLATI

Axmadaliyev Jasurbek Ismatilla o'g'li

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti 1-kurs kursanti

Dilshod Yuldashevich Sattarov

Ilmiy rahbar. Bojxona instituti dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14685189>

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquq va erkinlik tushunchasi. O'zbekistonda qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari qay daraja aks etganligi. Yangi O'zbekistonda inson qadri to'g'risida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: genosid, implementatsiya, deklaratsiya, konstitutsiya, pakt, huquq, tabiiy huquq.

RIGHTS AND FREEDOMS OF CITIZENS

Abstract. This article discusses the concepts of rights and freedoms, and to what extent citizens' rights and freedoms are reflected in the laws of Uzbekistan. It also presents reflections on human dignity in the New Uzbekistan.

Keyword: Genocide, Implementation, Declaration, Constitution, Pact.

ПРАВА И СВОБОДЫ ГРАЖДАН

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятия прав и свобод, а также степень отражения прав и свобод граждан в законодательстве Узбекистана. Кроме того, представлены размышления о человеческом достоинстве в Новом Узбекистане.

Ключевое слово: Геноцид, Реализация, Декларация, Конституция, Пакт.

Huquq va erkinlik

Huquq – jamiyatdagi odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, davlat tomonidan kafolatlangan va himoya qilinadigan umumiy majburiy qoidalar tizimidir.

Erkinlik – bu insonning o'z xohish-irodasi va tanlovi asosida harakat qilish huquqidir, lekin bu jarayonda boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazmaslik lozim.

Inson huquqlari va erkinliklari

Inson huquqlari – tabiiy, ajralmas va fundamental huquqlardir. Ular inson tug'ilganidan boshlab unga tegishli bo'lib, davlat yoki boshqa shaxslar tomonidan cheklanishi mumkin emas.

Masalan: yashash huquqi, ta'lim olish huquqi, so'z erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi.

Misollar

1. **Yashash huquqi (asosiy inson huquqi):** Har bir insonning hayoti himoya qilinadi. Masalan, Konstitutsiyaga ko'ra, hech kim o'z hayotidan noqonuniy ravishda mahrum qilinishi mumkin emas.

2. **So'z va fikr erkinligi:** Inson o'z fikrini erkin ifodalash huquqiga ega. Masalan, odamlar jamiyatda muammolar haqida ochiq gapirishi, jurnalistlar axborotni tarqatishi qonun bilan himoyalangan (agar bu boshqalarga zarar yetkazmasa).

3. **Ta'lim olish huquqi:** Har bir fuqaro bepul umumiy ta'lim olish huquqiga ega. Bu huquq orqali odamlar bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning jamiyatda munosib o'rin egallashiga yordam beradi.

4. **Sud orqali himoya huquqi:** Har bir insonning huquqlari buzilganda, sudga murojaat qilish huquqi mavjud. Masalan, biror korxona xodimni noqonuniy ishdan bo'shatsa, u sud orqali o'z huquqlarini tiklashga haqli.

Davlatning vazifasi

Davlat inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, ularni himoya qilish hamda ularga rioya etilishini ta'minlashga mas'uldir. Bu xalqaro huquqiy me'yorlar bilan ham tartibga solinadi, masalan, **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi** yoki **Fuqarolik va siyosiy huquqlar xalqaro pakti**.

Bu mavzusi to'g'risidagi olimlar fikri:

Jon Lokke (1632–1704) – Ingliz faylasufi va siyosatshunosi. U **tabiiy huquqlar nazariyasini** ishlab chiqdi. Lokke bo'yicha, insonlarning asosiy huquqlari – hayot, erkinlik va mulk. Unga ko'ra, har bir odam bu huquqlarga ega bo'lib, davlat ularni himoya qilish uchun mavjud bo'lishi kerak ¹.

Inson – davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo'lishi lozim. Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston uchun inson qadri va xalq manfaati, hamma narsadan ustundir! Shu bois, inson qadrini yuksaltirish haqiqatda davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasi bo'lmog'i shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyev

Insonning huquqlari va erkinliklari u tug'ilganidan boshlab qisman paydo bo'ladi. Ular davlat tomonidan hurmat qilinishi va himoya qilinishi kerak.

Biroq, tarix davomida va hozirgi kunda ham dunyoning turli burchaklarida fuqarolarning huquq va erkinliklari ko'plab hollarda buzilishi, shaxsning erkin yashashiga va taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi muammolarni ko'rishimiz mumkin. Siyosiy repressiyalar, genotsid, irqiy kamsitishlar, diniy ta'qiblar, shaxsiy hayotga zo'ravon aralashish va majburiy mehnat kabi holatlar fuqarolarni nafaqat erkinlikdan, balki insoniy sha'nidan ham mahrum qiladi. Bunday holatlar bizning xalqimizga ham qo'llanilgan. Ko'plab yetuk olimlarimiz, yozuvchilarimiz Sobiq sho'ro davrida qatag'on qilindi, taqiqqa uchradi, mol-mulkleri olib qo'yildi.

Istoqlolning dastlabki yillarida bunday holatlardan xulosa olgan holda qonunchilik tizimimizni tuzdik. Bunga misol qilib "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ni konstitutsiyamizda to'laqonli aks etganini keltirishimiz mumkin. Jumladan, Bosh Qomusimizning II bob 13 moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Konstitutsiya – (lotincha "constitutio" – o'rnatish, tuzilish) moddiy ma'noda, avvalo, inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklarini e'lon qiluvchi va kafolatlovchi, shuningdek ijtimoiy tuzum, boshqaruv shakli, davlat tuzilishi, hokimiyatning markaziy va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari, o'zaro munosabatlarini, davlat ramzlari va poytaxtini belgilaydigan qonun hujjati, hujjatlar yoki konstitutsiyaviy odatlar majmui.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

26-modda

*Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas.*²

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

Keyingi qadamlar sifatida inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzilishini, istiqlol yillarida insonning asosiy huquq va erkinliklarini

ta'minlashga doir konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslar va boshqa qonunlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilgani, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Xayriya to'g'risida"gi va boshqa qonunlarning qabul qilinishi, yil nomlari shu yil uchun yil dasturi bo'lishini hisobga olib yil nomlarini ("Sog'lom bola yili", "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili", "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim") inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga zamin bo'lganini qayt etishimiz mumkin.

Albatta inson huquqlari haqida gap ketganda 2023-yil 30 aprelda o'tkazilgan referendum asosida qabul qilingan konstitutsiya e'tirof etish kerak. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi barqaror taraqqiyoti, xalqimiz farovon hayotining mustahkam huquqiy asosi va ishonchli kafolatidir. Bosh qomusimizda ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etilib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Xususan, inson manfaati har narsadan ustun qo'yilishi e'tirof etildi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilandi. Bular, inson sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi, inson va davlat organlari o'rtasida yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta'sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi va boshqalarda o'z aksini topgan.

Shu jumladan bu yo'nalishda xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi F-4849-son [Farmoyishi](#) e'lon qilindi. Respublika Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida quyidagilar ta'kidlangan: «Mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, ... globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda»³.

Shu jumladan 2023-yil Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlandi.

Ushbu maqola inson huquqlari va erkinliklari, shuningdek, ularning O'zbekistondagi qonunlar orqali qanday aks etishi haqida muhim masalalarni ko'rib chiqadi. Inson huquqlari va erkinliklari xalqaro huquqiy me'yorlar asosida kafolatlanishi zarur, va O'zbekistonning Konstitutsiyasi ham bu prinsiplarni qo'llab-quvvatlaydi. Davlat inson huquqlarini himoya qilish, ularga rioya etish va ularni ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

REFERENCES

1. "Two Treatises of Government" (1689)
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. "Davlat va huquq nazariyasi" 2018
4. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi